



## MATN TABDILIDA ANIQLIK

**Muallif:** Muhabbat Fazliddinova Shavkat qizi <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** O'ZR FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20225878>

### ANNOTATSIYA

Matnshunoslik tadqiqoti keyingi filologik o'rganish va izlanishlar uchun poydevor vazifasini o'tashini hisobga olib, asar tabdilini tayyorlash jarayoniga jiddiy qarash, xatolar ustida qayta ishlash va to'g'irlash ilmiy aniqlik nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etadi. Maqolada matn tabdili jarayonidagi murakkabliklar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** matn, tabdil, qo'lyozma, nashr matni, ilmiy aniqlik.

Aniqlik ilmiy faoliyatning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi. Xususan, matnshunoslik asarni nashrga tayyorlashdek muhim vazifani bajaruvchi soha sifatida matn bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o'girishda o'ta sinchkovlik va e'tiborlilikni talab etadi. Bu borada matnshunos olim M.Abdulxayrovning quyidagi fikrlari juda o'rinli: "Tabiiyki, matnshunos yoki muharrir matn ustida ishlashi mobaynida nihoyatda faol, hushyor, butun diqqat-e'tiborini bir yerga jamlagan bo'lishi kerak. U matnni qanday idrok etishligini nazorat qila olishi, muallif mulohazasidagi o'ziga xoslikni baholay bilishi kerak. Bu muharrirga o'zi tutadigan yo'l (strategiya)ni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa, tuzatish jarayonida"[1:22]. Ammo bu murakkab jarayonda kamchiliklar bo'lmasligi, mukammal tabdil berish qiyin masala, albatta. Shuning uchun asar matnini tabdil qilish va nashrga tayyorlash jarayoniga bir necha matnshunos jalb qilinsa va ish qayta-qayta ko'rib chiqilsa, sifatli material tayyorlashga erishiladi.

Mana shu jihatlarni hisobga olgan holda joriy yozuvga tabdil qilinib, nashr etilgan asarlar qayta ko'rib chiqilsa, ko'zdan qochirilgan ba'zi texnik xatolar va kichik kamchiliklar ham bartaraf etiladi. Matnshunos olim D. Lixachev holatni shunday izohlaydi: "Nashr turi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ilmiy-ommabopmi yoki mutaxassislariga mo'ljallanganmi, har bir nashr ilmiy bo'lishi shart"[2:66].

O'zbek matnshunosligi bir qancha yutuqlari bilan jahon tekstologiyasida o'z o'rniga ega. Ammo sohada ba'zi kamchiliklar ham yo'q emas. Matnshunoslik tadqiqotlari olib borishda aniqlikka asosiy mezon sifatida qaralishi bugun uchun ham dolzarb. Chunki tabdil qilingan ba'zi matnlar asosiy manba bilan qayta qiyoslab o'rganilsa bir qator farq va kamchiliklar, tushib qolgan, o'zgartirilgan o'rinlar mavjudligini ko'rish mumkin. Masalan, yagona nusxasigina fanga ma'lum bo'lgan Yusuf Amiriyning "Dahnoma" asari qo'lyozmasi va nashr matni bir qancha tafovutlar mavjud.

صبا البينكا باريب تارتماي آه  
[3,256v] كه قاتبيغ كيلماسون كونكون كا ناكاه ]



*Sabo olingda borib tortmay oh,  
Ki qotig' kelmasun ko'nglungg'a nogoh [4:99].*

Qo'lyozmada yo'q harflarni mazmun va vazn talabi bilan izoh bergan holda tiklash mumkin. Ammo zarurat bo'lmaganda matnni asliyat variantida bergan ma'qul. Ushbu o'rinda "ko'nglunga" so'zi qo'shimchasida "g" yo'q. *کوک اوستیندین سالور آی* بیرکا نورین

[3,258v] که تا کسب ایثار اندین بیر حضورین ]

*Ko'k ustidin solur oy yerga nurin,  
Ki to kasb etar andin yer huzurin [4:102].*

Tabdil murakkab jarayon. Harflar tushirib qoldirilishi, almashtirilishi yoki ortiqcha yozilishi bilan bog'liq texnik holatlar ko'p uchraydi. Ikkinchi misradagi "ustidin" so'zidagi n nashrda tushib qolgan.

*کوزونک سحرى اولوس قه جان بالاسى  
]3,262v] یوروب باشلارین زولفونک هواسى ]*

*Ko'zung sehri ulusda jon balosi  
Ayurub boshlarin zulfung havosi [4:108].*

Qo'shimchalardagi xatolik nafaqat so'z, butun fikr mazmunini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli tabdilda har bir elementga diqqatli bo'lish talab etiladi. Baytda "-qa" qo'shimchasi "-da" shaklida yanglish o'qilgan.

Ko'rinadiki, matnda xato o'qilgan harf yoki nuqta ham so'z mazmunini o'zgartirishi mumkin. Shu sababli tabdil jarayonida yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan texnik xatolar va kamchiliklarga e'tiborli bo'lish lozim.

Adabiy manba qo'lyozmasini o'rganish, tabdil qilish, ilmiy muomalaga kiritishda mumtoz asarlarning tushunilishi qiyin bo'lgan tilini o'quvchi yaqinlashtirish uchun so'zlar izohi va lug'atlarning berilishi juda muhim hisoblanadi. "Biz o'tmishda yashab ijod etgan, uslubi tushunish uchun ma'lum darajada og'ir shoir va adiblarimiz asarlarini zamonaviy kitobxonga yaxshi va oson tushunishi uchun ilmiy izohlarni ko'paytirish, she'riy asarlarning nasriy bayonlarini yaratish, maxsus lug'atlar tuzish bilan qattiqroq shug'ullanmog'imiz kerak. Toki Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarimiz asarlarida keng kitobxonlar ommasi tushunmagan biron bayt, biron satr qolmasin"[4:95].

Matnshunos tadqiqi keyingi filologik o'rganish va izlanishlar uchun poydevor vazifasini o'tashini hisobga olib, asar tabdilini tayyorlash jarayoniga jiddiy qarash, xatolar ustida qayta ishlash va to'g'rilash ilmiy aniqlik nuqtayi nazaridan dolzarblik kasb etadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulxayrov M. Adabiy manbani matniy tadqiq etish usullari va tamoyillari. – Toshkent., "ADAST POLIGRAF", 2022
2. Лихачев Д.С. Текстология. – М. –Л., 1962. – С. 490.
3. Poetical Anthology. Eastern Turkish. Brit. Mus.: add. 7,914. — 671 б
4. Муборак мактублар. Ўзбек адабиёти бўстони. Нашрга тайёрловчилар: Абдувоҳидова М., Мухторова Х., Қосимхонов Б., Жўраев О. — Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. — 304 б.

5. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. –T.: O'qituvchi, 1997.
6. Зоҳидов Р. Матншунослик ва адабий манбашунослик асослари. – Т.: Yashil yaproq, 2023. – 223 б.